



QO'SHMA KORXONALARDA NOMODDIY AKTIVLAR HISOBINI XALQARO STANDARTLAR ASOSIDA TASHKIL ETISH TARTIBI

Yusupov Asror

"International School Of Finance Technology And Science" instituti

ORCID: 0009-0006-3975-7352

asroryusupov14011992@gmail.com

Annotatsiya. Ushbu maqolada nomoddiy aktivlarning ta'rifi, ularni dastlabki tan olish va baholash, keyingi baholashlar, amortizatsiya hisoblash usullarini qo'llash, hisobdan chiqarish, nomoddiy aktivlar hisobini Moliyaviy hisobotning xalqaro standartlariga muvofiq aks ettirish hamda moliyaviy hisobotning tegishli moddalarida ochib berish jihatlariga e'tibor qaratilgan.

Kalit so'zlar: moliyaviy hisobotning xalqaro standartlari, hisob siyosati, nomoddiy aktivlar, litsenziyalar va kvotalar, intellektual mulk, patentlar va mualliflik huquqlari, brendlar, savdo belgilari, moliyaviy holat to'g'risidagi hisobot, xorijiy investor.

ПОРЯДОК ОРГАНИЗАЦИИ УЧЕТА НЕМАТЕРИАЛЬНЫХ АКТИВОВ В СОВМЕСТНЫХ ПРЕДПРИЯТИЯХ НА ОСНОВЕ МЕЖДУНАРОДНЫХ СТАНДАРТОВ

Юсупов Асрор

Институт «International School Of Finance Technology And Science»

Аннотация. В данной статье рассматриваются определение нематериальных активов, их первоначальное признание и оценка, последующая оценка, применение методов начисления амортизации, списание, а также отражение учёта нематериальных активов в соответствии с Международными стандартами финансовой отчётности и раскрытие информации в соответствующих статьях финансовой отчётности.

Ключевые слова: международные стандарты финансовой отчетности, учетная политика, нематериальные активы, лицензии и квоты, интеллектуальная собственность, патенты и авторские права, бренды, товарные знаки, отчет о финансовом положении, иностранный инвестор.

PROCEDURE FOR ORGANIZING INTANGIBLE ASSETS ACCOUNTING IN JOINT VENTURES BASED ON INTERNATIONAL STANDARDS

Yusupov Asror

"International School Of Finance Technology And Science" Institute

Abstract. This article focuses on the definition of intangible assets, their initial recognition and measurement, subsequent measurement, the application of amortization methods, derecognition, and the accounting for intangible assets in accordance with International Financial Reporting Standards, as well as their disclosure in the relevant items of the financial statements.

Keywords: *International Financial Reporting Standards, accounting policy, intangible assets, licenses and quotas, intellectual property, patents and copyrights, brands, trademarks, statement of financial position, foreign investor.*

Kirish.

Moddiy ko'rinishga ega bo'lmagan, lekin insoniyat taraqqiyotiga ulkan hissa qo'shayotgan mutlaq va nomutlaq huquqlar (nomoddiy aktivlar), shuningdek, minglab operatsiyalarni yuqori tezlik va aniqlikda qayta ishlash imkonini beruvchi nomoddiy aktivlarni zamon talablari asosida chuqurroq o'rganish hamda ularning hisobini to'g'ri yuritish bugungi kunda o'sib kelayotgan yosh avlod oldida turgan muhim vazifalardan biridir. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining qaroriga asosan mamlakatimizdagi yirik soliq to'lovchilar uchun moliyaviy hisobotlarni xalqaro standartlar asosida topshirish majburiy etib belgilangani sababli, mazkur xo'jalik yurituvchi subyektlarda auditorlik tekshiruvlari ham auditning xalqaro standartlari asosida o'tkazila boshlandi. Shuningdek, qarorda buxgalteriya hisobining milliy standartlarini (BHMS) moliyaviy hisobotning xalqaro standartlariga (MHXS) uyg'unlashtirish vazifasi belgilab berilgan.

Tadqiqot metodologiyasi.

Maqolada analiz va sintez, induksiya va deduksiya, monografik kuzatish, taqqoslash, ilmiy abstraksiyalash, tizimli va SWOT-tahlil, iqtisodiy-matematik usullar, hujjatlashtirish, qiymatni baholash va diskontlash, yoppasiga tekshirish va tanlab tekshirish kabi usullardan keng foydalanilgan.

Adabiyotlar sharhi.

Iqtisodiy manbalar tahlili shuni ko'rsatadiki, ularda "joriy aktivlar" tushunchasiga "oborot aktivlar", "aylanma aktivlar", "qisqa muddatli aktivlar", "aylanma mablag'lar" va "aylanma kapital" kabi tushunchalar sifatida yondashilgan.

Jumladan, N. P. Kondrakov (2011) fikricha, "...ilmiy asarlar, adabiyot va san'at asarlari, elektron hisoblash mashinalari uchun dasturlar, ixtirolar, foydali modellar, seleksiya yutuqlari, ishlab chiqarish sirlari (nou-xau), tovar belgilari va xizmat ko'rsatish belgilari, korxonalarining ishchanlik mavqe'i".

Iqtisodchi olimlar T. G. Belozerova va boshqalar (2014) nomoddiy aktivlarni quyidagicha tasniflaydi: NMA obyektiga bo'lgan huquq tavsifiga ko'ra;

- NMA obyektlarining xizmat muddatiga ko'ra;
- qiymatini so'ndirishiga ko'ra;
- kirim qilish manbasiga ko'ra;

huquqdan voz kechish imkoniyatiga ko'ra.

A. Sotvoldiyev va Yu. Itkinlarning (2002) ta'rificha, nomoddiy aktivlar deganda moddiy shaklga ega bo'lmagan, jismoniy xususiyati yo'q obyektlar tushuniladi.

D. E. Norbekov va boshqalarning (2019) fikricha, nomoddiy aktiv — bu moddiy-ashyoviy mazmunga ega bo'lmagan, identifikatsiyalanadigan nomonetar aktivlardir.

F. G'ulomova (2000) fikricha, nomoddiy aktiv tabiiy moddiy ko'rinishga ega bo'lmagan, uzoq muddat ishlab chiqarishda foydalaniladigan hamda qo'shimcha daromad keltiradigan obyektlar hisoblanadi.

Muallif fikricha, nomoddiy aktivlar – korxonada tomonidan uzoq muddat davomida ishlab chiqarish, ishlar bajarish, xizmatlar ko'rsatish yoki tovarlarni sotish jarayonida foydalanish, yoxud ma'muriy va boshqa vazifalarni amalga oshirish maqsadida ushlab turiladigan, moddiy-ashyoviy shaklga ega bo'lmagan, identifikatsiya qilinadigan mulk obyektlaridir.

Tahlil va natijalar muhokamasi.

Xalqaro standartga ko'ra, nomoddiy aktivlarning o'ziga xosligi shundaki, ko'p hollarda ularning qo'shimcha qilinadigan yoki almashtiriladigan qismi bo'lmaydi. Demak, keyingi xarajatlarning aksariyati ushbu standartdagi nomoddiy aktiv ta'rifiga va tan olish mezonlariga mos kelishdan ko'ra, mavjud nomoddiy aktiv tarkibidagi kutilayotgan iqtisodiy foydani saqlab qolishga xizmat qiladi.

Shu bilan birga, keyingi xarajatlarni butun biznesga nisbatan emas, balki aynan ma'lum bir nomoddiy aktivga tegishli ekanligini aniqlash odatda qiyinroq kechadi. Natijada, faqat ayrim hollardagina keyingi xarajatlar, ya'ni sotib olingan nomoddiy aktiv dastlab tan olinganidan yoki ichki tartibda yaratilgan nomoddiy aktiv yakunlanganidan keyin qilingan sarflar, aktivning balans qiymatida tan olinadi. Brendlar, unvon nomlari, nashr nomlari, mijozlar ro'yxatlari va mohiyatan shunga o'xshash boshqa moddalar bo'yicha keyingi xarajatlar, ular sotib olingan yoki ichki tartibda yaratilganidan qat'i nazar, sarflangan paytda doimo foyda yoki zarar tarkibida tan olinadi. Buning sababi, bunday xarajatlarni butun biznesni rivojlantirishga qaratilgan xarajatlardan ajratib bo'lmaydi.

BHXS 38-sonli standartiga muvofiq, nomoddiy aktiv quyidagi hollarda tan olinadi:

- subyekt nomoddiy aktiv bilan bog'liq kelgusi iqtisodiy nafni olish ehtimoli mavjud bo'lsa;

- aktivning tannarxi ishonchli baholana olsa.

BHXS 38 bo'yicha, nomoddiy aktivni alohida sotib olishda to'lanadigan narx aktivda mujassamlashgan kutilayotgan kelgusi iqtisodiy naflarning tadbirkorlik subyekti tomonidan olinishi ehtimoliga doir kutilmalarni aks ettiradi. Boshqacha aytganda, tadbirkorlik subyekti iqtisodiy naf oqimining vaqti yoki summasi bo'yicha noaniqlik mavjudligidan qat'i nazar, iqtisodiy naf olinishini kutadi. Shu sababli, alohida sotib olingan nomoddiy aktivlar uchun ehtimollikni tan olish mezon doimo bajarilgan deb hisobga olinadi.

Nomoddiy aktivlarni keyingi baholash tushunchasi asosan ularni qayta baholashni anglatadi. Xalqaro standartda subyekt ularni quyidagi ikki model bo'yicha hisobga oladi:

- tannarx bo'yicha hisobga olish modeli;

- qayta baholash modeli.

- Nomoddiy aktivlarning turkumi — bu aktivlarning o'xshash tabiati va subyekt faoliyatida foydalanilishi jihatidan guruhlanishidir. Bir turkumdagi nomoddiy aktivlar bir vaqtda qayta baholanadi, bu orqali aktivlarni tanlab qayta baholashning hamda moliyaviy hisobotlarda turli sanalardagi tannarxlar va qiymatlar yig'indisini aks ettiruvchi miqdorlarni taqdim etishning oldi olinadi.

<i>Tannarx bo'yichahisobga olish modeli:</i>	<i>Ushbu modelga muvofiq, dastlabki tan olinganidan so'ng, nomoddiy aktiv tannarxidan jamg'arilgan amortizatsiya va qadrsizlanishdan ko'rilgan zararlar chegirib tashlangan qiymatda hisobga olinadi.</i>
<i>Qayta baholash modeli:</i>	<i>bunda dastlabki tan olinganidan so'ng, nomoddiy aktiv qayta baholangan qiymatida, ya'ni qayta baholash sanasidagi uning haqqoniy qiymatidan har qanday keyingi jamg'arilgan amortizatsiya va har qanday keyingi to'plangan qadrsizlanish bo'yicha zararni chegirgan holdagi qiymatida hisobga olinadi.</i>

Nomoddiy aktiv uchun faol bozor mavjud bo'lishi odatiy hol emas, lekin bunday bo'lishi mumkin. Masalan, ayrim yurisdiksiyalarda erkin o'tkaziladigan taksi litsenziyalari, baliq ovlash litsenziyalari yoki ishlab chiqarish kvotalari uchun faol bozor mavjud bo'lishi mumkin. Biroq, brendlar, gazeta nomlari, musiqa va film nashr etish huquqlari, patentlar va savdo belgilari uchun faol bozor mavjud bo'la olmaydi, chunki bunday aktivlarning har biri noyobdir. Shu bilan birga, nomoddiy aktivlar oldi-sotdi qilinsa-da, shartnomalar alohida sotuvchilar va xaridorlar o'rtasida tuziladi va operatsiyalar kamdan-kam sodir bo'ladi. Shu sababli, bir aktiv uchun

to'langan narx boshqasining haqqoniy qiymati to'g'risida yetarlicha dalil bo'la olmaydi. Bundan tashqari, narxlar ko'pincha ommaga ma'lum bo'lmaydi.

Nomoddiy aktivlarni subyekt aktivlari sifatida tan olingandan keyingi baholashdan maqsad – ushbu baholanayotgan obyekt orqali daromad olishni ko'zda tutishdir. Aksariyat hollarda obyektlar qiymatini baholash nomoddiy aktivlarni hisobdan chiqarishda yoki sotishda qo'llaniladi.



1-rasm. Qo'shma korxonalarda nomoddiy aktivlarni baholash.

Nomoddiy aktivlarning boshlang'ich (qayta tiklanish) qiymati qayta baholanganda, ularning qayta baholash sanasidagi jamg'arilgan amortizatsiyasiga nomoddiy aktivlarning boshlang'ich (qayta tiklanish) qiymati o'zgarishining tegishli indeksleri bo'yicha tuzatish kiritiladi hamda keyinchalik amortizatsiya hisoblash qayta baholangan (qayta tiklanish) qiymatdan kelib chiqib amalga oshiriladi. Qayta baholash indeksi nomoddiy aktivning joriy qiymatini uning boshlang'ich qiymatiga bo'lish orqali aniqlanadi. Qayta baholash natijasida nomoddiy aktivlar qiymatining oshish summasi zaxira kapitali tarkibida "Uzoq muddatli aktivlarni qayta baholash bo'yicha tuzatishlar" schyotiga o'tkaziladi. Qayta baholash natijasida nomoddiy aktivlar qiymatining kamayish summasi avvalgi hisobot davrlarida o'tkazilgan ushbu obyekt qiymatining oshish summasi doirasida "Uzoq muddatli aktivlarni qayta baholash bo'yicha tuzatishlar" schyoti bo'yicha zaxira kapitalini kamaytirishga yo'naltiriladi. Obyekt qiymati kamayishi summasining uning qiymati oshishi summasidan ortiq qismi boshqa operatsion xarajatlarga kiritiladi. Nomoddiy aktivlarni qayta baholash natijalari qayta baholash amalga oshirilgan joriy davr moliyaviy hisobotida aks ettiriladi.

Nomoddiy aktivning foydali xizmat muddatini aniqlashda quyidagi kabi ko'plab omillar inobatga olinadi:


- subyekt tomonidan aktivdan kutilayotgan foydalanish darajasi va aktivning boshqa boshqaruv jamoasi tomonidan samarali boshqarilishi ehtimoli;
- aktiv bo'yicha odatiy mahsulotning foydalanish davri, shuningdek, o'xshash usulda foydalaniladigan o'xshash aktivlarning foydali xizmat muddatlarining ehtimollari bo'yicha ommaviy ma'lumot;
- eskirishning texnik, texnologik, tijoriy va boshqa turlari;
- aktivdan foydalaniladigan sohaning barqarorligi hamda aktiv yordamida yaratiladigan mahsulotlar yoki ko'rsatiladigan xizmatlarga bo'lgan bozor talabidagi o'zgarishlar;
- raqobatchilar yoki potensial raqobatchilar tomonidan kutilayotgan harakatlar;
- aktivdan kutilayotgan kelgusi iqtisodiy naflarni olish uchun talab etiladigan saqlash xarajatlari darajasi hamda bunday darajaga erishishda xo'jalik yurituvchi subyektning imkoniyati va xohishi;
- aktiv ustidan nazorat davri hamda aktivdan foydalanish bo'yicha yuridik yoki shunga o'xshash cheklovlar, masalan, tegishli ijara shartnomalarining tugash sanalari;
- aktivning foydali xizmat muddati subyektning boshqa aktivlari foydali xizmat muddatiga bog'liqligi.

Tanlangan amortizatsiya usuli xo'jalik yurituvchi subyekt tomonidan aktivdan kutilayotgan kelgusi iqtisodiy naflar qanday iste'mol qilinishini aks ettirishi lozim. Agar bu holatni ishonchli aniqlashning imkoni bo'lmasa, to'g'ri chiziqli (bir tekis) usul qo'llanilishi kerak. Har bir davr uchun amortizatsiya summasi foyda yoki zararlar tarkibida tan olinadi.

Aktivning amortizatsiyalanadigan qiymatini uning foydali xizmat muddati davomida muntazam ravishda xarajatlarga o'tkazish uchun turli amortizatsiya usullaridan foydalanish mumkin:

- ✓ to'g'ri chiziqli usul;
- ✓ kamayib boruvchi qoldiq usuli;
- ✓ ishlab chiqarish usuli.

Nomoddiy aktivlar bo'yicha amortizatsiya ajratmalari hisobot davridagi korxonada faoliyati natijalaridan qat'i nazar hisoblanadi va tegishli hisobot davrining buxgalteriya hisobida aks ettiriladi. Nomoddiy aktivlar bo'yicha hisoblangan amortizatsiya summalari alohida hisobvaraqlarda jamg'arish yo'li bilan buxgalteriya hisobida qayd etiladi.



2-rasm. Nomoddiy aktivlarning foydali xizmat muddatini belgilovchi omillar.

Foydali xizmat muddati aniq bo'lgan nomoddiy aktivning tugatish qiymati, quyidagi holatlar bundan mustasno, nolga teng deb qabul qilinishi lozim:

- aktivning foydali xizmat muddati oxirida uchinchi shaxsning uni sotib olish bo'yicha majburiyati mavjud bo'lsa;
- aktiv uchun faol bozor (MHXS 13 da ta'riflanganidek) mavjud bo'lib:
- ✓ tugatish qiymatini ushbu bozor ma'lumotlari asosida aniqlash mumkin bo'lsa;
- ✓ aktivning foydali xizmat muddati oxirida bunday bozorning mavjud bo'lish ehtimoli yuqori bo'lsa.

Quyidagi holatlarda nomoddiy aktiv hisobdan chiqarilishi lozim:

- ✓ aktiv hisobdan chiqarilganda;
- ✓ undan foydalanishdan yoki uni tasarruf etishdan kelajakda hech qanday iqtisodiy naf kutilmaganda.

Xulosa va takliflar.

1. Amaldagi normativ-huquqiy hujjatlar hamda iqtisodchi olimlarning ilmiy, o'quv-uslubiy asarlaridagi ta'riflar va yondashuvlarni tadqiq qilish orqali Moliyaviy hisobotning xalqaro standartlari (MHXS) asosida buxgalteriya hisobi obyekti va moliyaviy hisob elementi sifatida "nomoddiy aktivlar" tushunchasiga mualliflik yondashuvi shakllantirildi. Nomoddiy aktivlar – korxonada tomonidan uzoq muddat davomida mahsulot ishlab chiqarish, ish bajarish, xizmat ko'rsatish, tovar sotish yoki ma'muriy va boshqa vazifalarni amalga oshirish maqsadida

foydalaniladigan, moddiy-ashyoviy shaklga ega bo'lmagan, identifikatsiyalanadigan mol-mulk obyektlaridir.

2. Xalqaro standartga muvofiq, nomoddiy aktivlar turkumi o'xshash xususiyatlariga va tadbirkorlik subyekti faoliyatida foydalanilishiga ko'ra guruhlanishini aks ettiradi. Alohida turkumlar quyidagilarni o'z ichiga olishi mumkin:

brend nomlari;

titul ma'lumotlari (nomlar) va nashr nomlari;

kompyuter dasturiy ta'minotlari;

litsenziyalar va franchayzinglar;

mualliflik huquqlari, patentlar va boshqa sanoat mulki huquqlari, xizmat ko'rsatish va amaliyot huquqlari;

retseptlar, formulalar, modellar, dizaynlar va andozalar;

tajriba-konstruktorlik ishlanmalari jarayonidagi nomoddiy aktivlar.

3. Moliyaviy holat to'g'risidagi hisobotda nomoddiy aktivlarni kirimini hisobga olishda dastlabki qiymat va qayta baholash qiymati usullari orasidan dastlabki qiymat usulidan foydalanish maqsadga muvofiqdir. Qayta baholash modelini qo'llash uchun nomoddiy aktivlar bo'yicha faol bozor mavjud bo'lishi kerak. Shu sababli, haqqoniy qiymat usulidan foydalanish uchun nomoddiy aktivlarning bozor qiymatini, xuddi asosiy vositalarnikiga o'xshab, aniqlash imkoniyati bo'lishi lozim.

Yuqoridagilardan kelib chiqib, qo'shma korxonalarda buxgalteriya hisobini raqobatbardosh tarzda tashkil etish uchun ularning brendlari, franshizalar kabi mashhur nomoddiy aktivlari bo'lishi kerak. Bu esa xorijiy korxonalar bilan shartnomalar tuzishni osonlashtiradi hamda rivojlanishimizga xizmat qiladi.

Adabiyotlar/ Лумепамыпа/References:

BHXS (IAS) 38. Nomoddiy aktivlar. Moliyaviy hisobotning xalqaro standartlari.

G'ulomova, F. (2000). Buxgalteriya hisobi bo'yicha mustaqil o'rganish uchun qo'llanma. Toshkent: Iqtisodiyot va huquq dunyosi.

IFRS Foundation (2026). International Financial Reporting Standards. [online] Available at: <https://www.ifrs.com> [Accessed 28 Apr. 2026].

Norbekov, D.E., To'rayev, A.N. and Rahmonov, Sh.Sh. (2019). Moliyaviy hisobotning xalqaro standartlari: O'quv qo'llanma. Toshkent: Iqtisod-Moliya.

O'zbekiston Respublikasi iqtisodiyot va moliya vazirining buyrug'i (2024). Moliyaviy hisobotlarni taqdim etish muddatlari hamda ularning tarkibi va mazmuni to'g'risida Nizom. 8-oktyabr, 181-sonli buyruqqa 1-ilova.

O'zbekiston Respublikasining Qonuni (2016). Buxgalteriya hisobi to'g'risida (yangi tahriri). 13-aprel, O'RQ-404-son. Toshkent.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining Qarori (2020). Moliyaviy hisobotning xalqaro standartlariga o'tish bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida. 24-fevral, PQ-4611-son. [online] Available at: <https://lex.uz/docs/4746047>.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining Qarori (2025). Moliyaviy hisob tizimini xalqaro talab va standartlarga muvofiq takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida. 15-sentyabr, PQ-282-son.

Sotvoldiyev, A. and Itkin, Yu. (2002). Zamonaviy buxgalteriya hisobi. Toshkent: O'BAMA.

Kirill alifbosidagi adabiyotlar

Белозерова, Т.Г., Луговский, Д.В. и Тхагансо, Т.А. (2014). Нематериальные активы: проблемы идентификации, оценки и классификации. Вестник АГУ, Выпуск 3 (150), с. 189–197.

Кондраков, Н.П. (2011). Бухгалтерский учет: Учебник. Москва: ИНФРА-М.

Internet resurslari

www.gov.uz – O'zbekiston Respublikasi Hukumat portali.

www.imf.uz – O'zbekiston Respublikasi Iqtisodiyot va moliya vazirligi.

www.lex.uz – O'zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari ma'lumotlari milliy bazasi.

www.ziyonet.uz – Ta'lim portali.